

PEDAGOGIK MAHORAT

5
2021



MUNDARIJA

| | |
|---|----------|
| PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA | 7 |
| Marg'uba MIRQOSIMOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkil etish | 7 |
| Bobirjon ERGASHEV. Professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalarini egallashlarida pedagogik strategiyalar | 14 |
| Sevara ADIZOVA. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar tahlili | 19 |
| Rita PAKHRATDINOVA. Designing students 'creative activity on national crafts as a factor of learning .. | 24 |
| Lola DJURAYEVA. Oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda "flipped classroom" texnologiyasidan foydalanish | 30 |
| Tohir NAZAROV. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi loyihaviy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi | 34 |
| Shabon FARMONOVA. Ta'lim mazmunini loyihalashning didaktik imkoniyatlari | 37 |
| Rustam SARIYEV. Sirtqi ta'lim shakli talabalarini o'qitish jarayonida elektron ta'limning roli va ahamiyati | 41 |
| Наргиз ДЖУМАЕВА. "Синквейн" как эффективный метод развития устной и письменной речи студентов | 46 |
| Firuz NURULLOYEV. Zamonaviy o'qitish usullari: an'anaviy va zamonaviy ta'limning afzalliklari | 51 |
| Хикмат БОБОМИРЗАЕВ, Д.УМУРЗОКОВ, Нафосат АКМАЛОВА. Особенности развития компетентно-педагогической профессии | 57 |
| Bobir ZOKIROV. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining madaniy-ilmiy hamkorlik tarixi: muammolar va yechimlar | 60 |
| Mavluda KALANDAROVA. XIX asr Xiva xonligi solnomalarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy muhitning yoritilishi | 64 |
| Sherzod ABDURAHMANOV. Talaba-yoshlarni vatanparvarlikka o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari .. | 69 |
| Xol XUDOYQULOV, Gulchexra ABDULLAYEVA, Sardorbek SHARIFZODA. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari | 78 |
| Manzura YULDASHEVA. Muqaddas ilohalar - salomatlik tayanchi | 83 |
| Dilrabo XUDOYQULOVA. Badiiy obrazlar vositasida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash | 85 |
| Abror ASKAROV. Multimediali darslarni loyihalashning ayrim jihatlari | 88 |
| Madinaxon TO'RABOYEVA. Pedagogik fanlar misolida talabalarining shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari | 91 |
| Ирода АСЛОНОВА, Озода ХОДИЕВА. Сравнительная оценка эффективности применения интерактивных методов обучения | 94 |
| Mahmud ASHUROV. Milliy g'urur va iftixor, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tushunchalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmun mohiyati | 97 |
| Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения | 103 |
| Zebo QOSIMOVA. Ta'lim jarayonida axborotlarga ratsional yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish | 108 |
| Zafar ASRAYEV. O'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish | 110 |
| Mirjalol JO'RAYEV. Elektr yuritmalari tezligini rostdash usullari | 114 |
| D. XOTAMOVA. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida | 118 |
| Hasan TO'XTAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari | 121 |
| Azamat SAIDOV. Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari | 124 |
| Qutlug'murod QODIROV. Islom madaniyati tarixini o'rganishda pedagogik va psixologik fikrlarni tahlil etishning o'ziga xos jihatlari | 128 |
| M. Kushanova. O'smirlar agressiv xulq-atvorining xorij va mamlakatimizda o'rganilganlik holati | 131 |
| Alisher SHARIPOV. O'smirlarda (11-15 yosh) irodaviy fazilatlarini tarbiyalashning ijtimoiy-ma'naviy asoslari | 137 |
| J. SHUKUROV. Bo'lajak ofitserlar faoliyatida emotsional intellektning roli | 140 |
| Ziyodullo ELOV. Qobiliyatning shaxsi psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti | 143 |
| Olmos AVEZOV. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti | 145 |

| | |
|--|------------|
| Muyassar MAHMUDOVA. Oilaviy ziddiyatlarni boshqarish va bartaraf etish | 150 |
| Azamat NAZAROV. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning psixologik modellari va texnologiyalari | 153 |
| Xo'jageldi ALIMOV. Tasavvuf ahliga va asarlariga to'laqonli yondashuv | 157 |
| Nargiza G'AYIBOVA. O'smirning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishida sibling maqomining o'rni | 159 |
| Alisher JABBOR. Diniy ma'lumotlarni tushunish xususiyatlari shaxs kognitiv differentsiya mezonini sifatida | 162 |
| Mushtariy ISAYEVA. Oila funksiyalarining diniy-psixologik aspektlari | 165 |
| Sarvar QAXXOROV. Diniy mutaassiblik muammosining psixologiyada o'rganilganlik darajasi | 169 |
| M. AKRAMOV. Ekologik ong shakllanishini o'rganishning psixologik masalalari | 171 |
| Gulbarno SODIQOVA. O'smirlar mustaqil qaror qabul qilishida diniy-psixologik omillarining amaliy tadqiqi | 174 |
| Dildoraxon ULMASOVA. Emotsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari hamda ularni boshqarishda emotsional intellektning roli | 178 |
| MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM | 181 |
| Mohira TURDIYEVA. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish modeli | 181 |
| Zulfizar YUSUPOVA, Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiylashuvida jismoniy tarbiyaning ta'siri | 185 |
| Махфуза САДУЛЛОЕВА. Семантический субъект предложения | 188 |
| FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH | 191 |
| R. YO'LDOSHEV, L. MIRJALOLOVA. Ona tilidan ayrim mashqlarni bajarishning interaktiv usullari ... | 191 |
| Roza NIYOZMETOVA. Asar qahramonlari insoniy fazilatlarini o'rganish vositasi sifatida | 194 |
| ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH | 197 |
| Ubaydullo ARABOV, Hamza ESHONQULOV. Katta ma'lumotlar (big data)ni tahlil qilish usullari | 197 |
| I. Khushmurodova. Modern information resources in the electronic library | 202 |
| Sanjar MARDOV. Qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini grafik dasturlar asosida rivojlantirishning metodikasi | 206 |
| Qavmiddin OMONOV. Geometrik girixlar va sirtlarning zamonaviy grafik dasturlar yordamida bajarib ta'lim jarayonida qo'llash | 213 |
| Раъно САЛОМОВА, Машхура УСМАНОВА. Развитие способностей учеников по системе обучения Маманазара Эргашевича Жумаева | 216 |
| Sayfulla NAZAROV, G'ayrat SHIRINOV, Sitorabonu JO'RAQULOVA. Kimyo darslarida interfaol jadvallardan foydalanish | 220 |
| Нодира АШУРОВА, Уткир ХАЗРАТОВ. Эффективность применения симуляционного обучения в медицинской практике студентов медицинских высших учебных заведений | 224 |
| Zarina MURODOVA, Firuza MURADOVA. Intellektual salohiyatga yo'naltirilgan topshiriq va masalalarni ishlab chiqish mexanizmi | 228 |
| G.I.SAYFULLAYEVA, S.X. MIRZAQANDOVA. Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonini takomillashtirish orqali bo'lajak astronomiya o'qituvchilarining eksperimental kompetentligini rivojlantirish | 235 |
| TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI | 238 |
| Qobil ABDULLAYEV, Manzura YULDASHEVA. "Avesto"dagi "Ashah vahishta" hamda "Yasa ahu vayru" mantrallari mazmuni va musiqiy ohanglari talqini | 238 |
| Maxmatmurod SHOMIRZAYEV, Kaxraman YULDASHOV. Milliy tarbiyada kashtachilikning o'rni | 242 |
| JISMONIY MADANIYAT VA SPORT | 246 |
| Jahon AXMEDOV. Sport umuminsoniy qadriyat hamda tarbiya vositasi sifatida | 246 |
| Rajab XALIMOV. Milliy kurash turlari va uni o'qitish metodikasi fanini o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari | 251 |
| Akram ABDULAXATOV, Farhod QULBULOV. Kurashchilar musobaqa faoliyatida: hujum, himoya, qarshi hujum va ogohlantirishlar | 255 |
| QUTLOV | 258 |
| Baqo UMAROV, O'ktam MARDONOV. Akademik N.A. Parpiyevning O'zbekistonda yaratgan koordinatsion birikmalar kimyosi ilmiy maktabi va uning istiqbollari | 258 |
| "Pedagogik mahorat" jurnali uchun maqolalarni rasmiylashtirish talablari | 267 |

Shabon FARMONOVA
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası o'qituvchisi

TA'LIM MAZMUNINI LOYIHALASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Maqolada loyihaviy ta'limda pedagogik va innovatsion faoliyat xususida fikr yuritiladi. Ta'lim oluvchida ta'lim va bilimga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirishga, mustaqil ishlashni, o'z kasbiga hurmat va iftixor, insoniy qadr-qimmat tuyg'usini shakllantirish innovatsion faoliyatga tayyorlashdagi asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: loyihaviy ta'lim, faoliyat, pedagogik mahorat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, motiv, faoliyat mazmuni.

Статья посвящена педагогической и инновационной деятельности в проектном образовании. Формирование увлеченности образованием и знанием в образовательной сфере, самостоятельной работы, уважения и гордости за свою профессию, чувства человеческого достоинства являясь главным фактором подготовки к инновационной деятельности.

Ключевые слова: проектное образование, деятельность, педагогическое мастерство, инновация, инновационная деятельность, мотивация, содержание деятельности.

The article is devoted to pedagogical and innovative activity in project education. The formation of enthusiasm for education and knowledge in the educational sphere, independent work, respect and pride for their profession, a sense of human dignity is the main factor in preparing for innovation.

Keywords: project education, activity, pedagogical skills, innovation, innovative activity, motivation, content of activity.

Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi. Akademik A.N. Leontev «Dunyoni idrok qilishning birinchi sharti -faoliyat, ikkinchi sharti - tarbiyadir. Faoliyat jarayonida kishilarning qobiliyati, bilim va malakalari shakllanadi, demak, faoliyat-ijtimoiy hodisa bo'lib, hayotiy kurashning asosiy sharti»,- deb ta'kidlaydi [1, 248]. YA'ni faoliyat ijtimoiy hodisa bo'lib, shaxsiy, guruh, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsadlar sari yo'naltirilgan harakat hisoblanadi.

Inson faoliyati o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, ijodiy faoliyat, ilmiy faoliyat, pedagogik faoliyat, tadbirkorlik faoliyati, o'quv-biluv faoliyati, boshqaruv faoliyati va innovatsion faoliyat kabilar. Faoliyatning mazmuni, shart-sharoitlari, vositalari o'zgarib borishi natijasida insonning ahloqiy madaniyati takomillashib boradi.

«Pedagogik faoliyat - jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarini shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni yosh avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat»,-deya ta'riflaydi B.Ziyomammedov [2, 28].

Pedagogik faoliyat, uning tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida juda ko'p olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, S.L.Kuzmina o'z tadqiqotlarida pedagogik faoliyatning gnoseologik (bilish), loyihalash, tashkilotchilik, kommunikativ tarkibiy qismlari mavjud ekanligi bayon etib o'tgan. [3, 9].

Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish - pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish «o'qituvchining innovatsion faoliyati» tushunchasi paydo bo'ldi.


Loyihalash faoliyati tuzilmasida faoliyatning ikki darajasi kuzatiladi: loyihalashning loyiha ko'rinishidagi yangi bilimlarni yaratishni ko'zda tutadigan ijodiy xarakteri; ilg'or pedagoglar tajribasini o'rganish asosida yaratilgan loyihada pedagog shaxsini aks ettiradigan loyihalashning individual xarakteri. Loyihalash faoliyatini pedagogning kasbiy kompetensiyasining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi birligini ifodalaydigan va kasbiy sifatini tavsiflaydigan qismi sifatida qarash zarur. Loyihalash faoliyatiga nazariy tayyorgarlik - loyihalash ko'nikmalari va kompetensiyalar majmuini yuqori darajada egallaganlik hisoblanadi. G.E.Muraveva loyihalash ko'nikmalariga didaktik jarayon rivojining natijasini oldindan ko'ra bilish sifatida tashxislash; loyihani amalga oshirishni rejalashtirish; moddiy vositalarni yaratishga doir texnologik jarayonni konstruksiyalash; ob'ekt haqida yangi axborot olishni modellashtirish masalalarini kiritadi [4].

V.A.Slastenin, N.V.Kuzminalar loyihalash faoliyatiga nazariy tayyorgarligini belgilaydigan kompetensiyalar majmuiga pedagogik faoliyatni o'z-o'zini takomillashtirishni ta'minlovchi reflektiv;

o'zining metodik darajasini oshirish qobiliyatini rivojlantiruvchi kognitiv; axborot olish hamda uni qo'llashga oid ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi ma'rifiy; og'zaki va yozma muloqot texnologiyasini rivojlantiradigan kommunikativ; o'zining kasbiy kompetentligi mohiyatini anglashga yo'naltiradigan ijtimoiy kompetensiyani kiritadi [5].

Loyihalash ta'limning ijtimoiy, pedagogik maqsadlarga tayangan holda pedagogik jarayonni aks ettiruvchi umumiy strategiya hisoblanadi. Loyihalashda o'quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o'quv qo'llanmalar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik vaziyatni to'laqonli anglash hamda vazifalarning aniq va to'g'ri belgilanishi pedagogik jarayonni samarali hal etishning muhim shartidir.

Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa sifatida qabul qilinadi. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati turli vazifalar mohiyatining bir yo'la yoki birin-ketin anglanishiga bog'liq. Pedagogik faoliyat uchun umumiy bo'lgan vazifalarni belgilab olish muhimdir. So'ngra pedagogik jarayonning ma'lum bosqichi mohiyatini aniq ifodalaydigan bosqichli vazifalar (alohida olingan bosqich vazifalari)ni, nihoyat xususiy (vaziyatli) pedagogik vazifalarni aniq belgilab olish maqsadga muvofiq (1-rasm) [5]:



1-rasm. Pedagogik maqsad pedagogik jarayonni tashkil etishga tayyorlanish bosqichida pedagogik vazifa

Agar pedagogik vaziyat etarli darajada to'g'ri anglanmasa, u holda pedagogik vazifalarni hal etish yo'llari ham to'g'ri belgilanmaydi. Endigina kasbiy faoliyatni boshlagan o'qituvchi tajribasizligidan pedagogik vaziyatni to'g'ri anglash, vazifalarni to'g'ri belgilash malakasiga ega bo'lmaydi. SHu sababli, ular o'zlaricha yo'l tutadilar va pedagogik vazifani darhol hal etmoqchi bo'ladilar, natijada jiddiy xatoga yo'l qo'yiladi. Ammo, ayrim holatlarda tajribali pedagoglar ham pedagogik vaziyatni to'g'ri anglashga e'tiborsiz qaraydilar. Natijada, pedagogik faoliyatda nomutanosiblik vujudga keladi: pedagog o'z faoliyatining pedagogik maqsadlarning hal etilishini ta'minlay olish-olmasligini o'ylab o'tirmay, o'quvchilarni faollashtiradi, ko'rgazmali qurollardan foydalanadi, bilimlarni nazorat qiladi. Pedagogik faoliyatning yana bir nomutanosiblik tomoni shundaki, ko'pchilik pedagoglar pedagogik vazifalarni ikkinchi darajali, funksional, o'tkinchi vazifalarga almashtiradilar va faqat ulargagina o'z diqqatlarini qaratadilar [5].

Pedagogik vazifani anglash mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va tashxis qo'yish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlarning tahlili vaziyat o'rnini aniqlashdan tashqari, butun pedagogik jarayonda tarbiyachi, tarbiyalanuvchi va ular o'rtasidagi munosabat hamda ta'lim mazmuni, samarali vosita va pedagogik shart-sharoitlar kabi asosiy tarkibiy qismlarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

O'qituvchining shaxsiy faoliyat dasturida o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar, o'quv kursining asosiy tayanch tushunchalari, o'quv axborotlarni o'zlashtirish psixologiyasi hisobga olinishi lozim. Demak, o'qituvchi loyihalash texnologiyasini qo'llashda o'quvchilarning ehtiyojlari, ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida darsga tayyorlash imkoniyati, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini o'stirishni asosiy masalalar sifatida tan olsagina muvaffaqiyat qozonadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchiga o'quv materialining mazmunini, vazifa yoki topshiriqlarni, faoliyat usullari hamda uslublarini tanlash imtiyozini beradi. Tanlash imkoniyati o'quvchini qaror qabul qilish, mustaqil izlanish va javobgarlikni his qilishga undaydi. SHu bois o'quv faoliyatining muqobil modellarini ishlab chiqish va ularni o'quvchiga taklif etish maqsadga muvofiq.

O'qituvchining vazifalaridan biri o'quv maqsadiga muvofiq o'quvchining ichki intilishi, rag'bat (motivi)ni rivojlantirishdir.

Loyihalashda o'quvchini o'quv faoliyatiga yo'naltiruvchi usullar, mustaqil ta'lim shakli, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini hurmat qilish imkoniyatlarini aniqlash zarur.

Maktab ta'limi muammolari o'quvchidan tashqarida emas, aksincha, uning o'zida. Binobarin, yoshlarning o'quv-tarbiyasiga oid ilmiy izlanishlar, pedagogik amaliyot masalalari bolalarning hayoti, ularning real bilish imkoniyatlari bilan uzviy bog'langan holda o'rganilishi va shar'lanishi lozim.

Ta'lim mazmunini uning maqsadiga mos tarzda belgilash imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo'lishi kerak:

1. O'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari va ta'limiy topshiriqlar birinchi navbatda ta'limning umumiy maqsadi va o'quv predmeti maqsadiga mos kelishi lozim.

2. O'zaro bir-birini takrorlaydigan tushunchalar, o'quv matnlari hamda ta'limiy topshiriqlarni ta'lim maqsadiga mos tarzda uyg'unlashtirgan holda o'quvchilarga taqdim etishga erishish.

3. Ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim mazmunini belgilashda o'qitish texnologiyasi va o'quvchi tomonidan bajariladigan ta'limiy topshiriqlarni aniq rejalashtirish.

4. Ta'lim maqsadiga mos tarzda turli yo'nalishda interfaol ish turlarini kengaytirishga erishish.

5. O'quvchilarga ta'lim maqsadiga mos tarzda taqdim etiladigan o'quv materiallari o'zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlar, mentaliteti, ma'naviy-madaniy hayoti, mashg'ulotlari, yashash hududi bilan chambarchas bog'langan, ularni o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanitira oladigan bo'lishi.

6. O'quv-metodik majmualar tarkibida beriladigan o'quv materiallari, ta'limiy topshiriqlar, didaktik ishlanmalar, savol va topshiriqlar, mustaqil ishlar, uy vazifalari, o'quvchining individual bilim olishi, voqea-hodisalarni tahlil qilishi, egallagan bilimlarini amalda qo'llashi uchun qulay bo'lishi.

7. Ta'lim maqsadidan kelib chiqqan holda o'quvchining mustaqil bilim olishini tashkil etish orqali ta'lim mazmunini maqsadga muvofiq tarzda belgilash imkoniyati vujudga keladi. Bu esa dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim maqsadiga mos keladigan ta'lim mazmuni birinchi navbatda fan-texnika, ishlab chiqarish hamda jamiyat hayotining ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlarini o'zida ifodalay olishi kerak. Asosan ona tili va o'qish o'quv predmetlari yordamida o'quvchilarda ijodiy-intellektual ko'nikmalar hosil qilinadi. Masalan: ma'lum bir badiiy asarni o'rganish, mustaqil o'qish asosida uning asosiy qahramonlari xarakterini, ularning faoliyati va ichki olamini tavsiflash topshirig'i darslikdagi badiiy timsollar tavsifini o'qib yodlashdan ko'ra ko'proq samara beradi. YOki ona tili darslarida muayyan umumiylikka ega bo'lgan 2-3 so'zni berib, bunday so'zlar tizimini davom ettirish, chunonchi, 1) *shaftoli, nok,/* mevalar nomini ifodalovchi so'zlar/, 2) *hilol, shams, yulduz,...../* osmon jismlari nomini ifodalovchi so'zlar/, 3) *qit'a, fard,...../* nazmiy asar turlarini ifodalovchi so'zlar / va h. 4) uyadosh so'zlar qatorini to'ldirish: a) *pushti.....qirmizi,* b) *imillamoq...elmoq,* v) *amaki.....bobo* kabi topshiriqlar o'quvchilarning aqliy, mantiqiy faoliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda ularda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmunini uning maqsadiga muvofiq tarzda belgilash uchun o'quv predmetlari maqsadlarini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Bunda ta'lim-tarbiyaning birligi maqsadi ustuvor bo'lishi lozim.

Ta'lim mazmuni bilan uning maqsadlari muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- bugungi kunda ta'lim maqsadiga mos keladigan mazmunni belgilash uchun o'quv jarayonini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish tamoyillariga amal qilish;

- o'zbek xalqining ma'naviy merosi, o'ziga xosligi, ilm-fan yutuqlarini hisobga olish;


- o'qituvchilarning kasb mahoratini ta'lim maqsadlari va mazmuniga mos tarzda rivojlantirib borish;

- ta'lim texnologiyalari va yangi didaktik ishlanmalari bilan o'quv jarayonini muntazam boyitib borish kabilar.

Xulosa qilib aytganda, tanlangan o'quv materiallari, ta'limiy topshiriqlar, didaktik ishlanmalar ta'limning umumiy va xususiy maqsadlariga to'la mos kelgandagina o'quv jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma bajariladi va barkamol shaxsni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi.

Adabiyotlar

1. Leontev A.N. Nauka i chelovechestvo. 2 t.-M.: Znaniya, 1963.-366 s.
2. Ziyomuhamedov B. Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. -T. : Ibn Sino, 2001. 79-b.
3. Kuzmina S.L. Filosofiya i pedagogika: metodologicheskiye aspekty istorii vzaimodeystviya. //J. Pedagogika.- 2001. -№5. -8-12 s.
4. Muraveva G.E. Proektirovanie texnologiy obucheniya : Ucheb.posobie dlya studentov i prepodavateley ped. vuzov, slushateley i prepodavateley kursov povыsheniya kvalifikatsii uchiteley / G.E. Muraveva. - Ivanovo, 2001. - 123 s.
5. Slastenin V.A. i dr. Pedagogika Ucheb.posobie dlya stud. vыssh. ped. ucheb. zavedeniy / V. A. Slastenin, I. F. Isaev, E. N. SHiyarov; Pod red. V.A. Slastenina. - M.: Izdatelskiy sentr "Akademiya", 2013. - 576 s.
6. Prisyajnaya A. F. Pedagogicheskoe prognozirovanie v sisteme nepreryvnogo pedagogicheskogo obrazovaniya (metodologiya, teoriya, praktika) Tekst.: dis. . d-ra ped. nauk : CHelyabinsk, 2006. - 380 s.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, texnikum, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

| | | |
|---|--|--|
| <p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2021-yil 5-son (81)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqqan boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p> | <p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.11.2021 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.11.2021 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 416 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p> |
|---|--|--|